

**“O‘ZAGROSUG‘URTA” AJ OMMAVIY OFERTA**  
**AVTOTRANSPORT VOSITALARINI SUG‘URTALASH MUHIM SHARTLARI**

**I. SHARTNOMADA QO‘LLANILADIGAN  
ATAMALARNING TAVSIFI**

**Sug‘urtalovchi** - “O‘zagrosug‘urta” aksiyadorlik jamiyati.

**Sug‘urta qildiruvchi** - avtotransport vositasini sug‘urtalash bo‘yicha Sug‘urta shartnomasini tuzgan va Sug‘urta mukofotini to‘lovchi yuridik yoki jismoniy shaxslar.

**Sug‘urta shartnomasi** - Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi vujudga kelganda moddiy zararni qoplab berish majburiyatini olgan va Sug‘urta qildiruvchi shartnomada belgilangan sug‘urta mukofotini to‘lash majburiyatini olgan yozma kelishuv.

**Avtotransport vositasi (TV)** - Odamlarni, yuklarni tashishga yoki maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan qurilma.

**Haydovchi** - Amaldagi qonun hujjatlariga asosan TV ni boshqarishga huquqi bo‘lgan shaxs.

**Naf oluvchi** - Avtotransport vositasiga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Sug‘urta hodisasi** - Sug‘urtalovchi tomonidan, sug‘urta puli doirasida sug‘urta tovonini to‘lab berish majburiyatini keltirib chiqarishga olib kelgan Sug‘urta shartnomasida ko‘zda tutilgan voqeaning yuz berishi.

**Tabiiy ofatlar** - Tabiiy ofatlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-avgustdagi “Gidrometeorologiya va atrof tabiiy muhit ifloslanishi monitoringi sohasida ixtisoslashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 501-sonli qaroriga asosan sharhlanadi.

Shatnoma doirasida tabiiy ofatlar: tezligi 20 m/s dan yuqori bo‘lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi yoki kuchli sovuq.

**Sug‘urta puli** - sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rilgan zarar qiymatini Sug‘urtalovchi tomonidan qoplashning eng yuqori miqdoridagi summa.

**Sug‘urta qiymati** - sug‘urta shartnomasini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko‘ra aniqlanadigan, sug‘urta manfaati bilan bog‘lanadigan avtotransport vositasining qiymati.

**Sug‘urta tovonni** - Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda avtotransport vositasi zararlanganida, nobud bo‘lganida yoki yo‘qotilganida yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash hisobiga sug‘urta puli doirasida to‘lanadigan pul mablag‘lari summasi.

**Sug‘urta mukofoti** - Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatda Sug‘urtalovchiga Sug‘urta qildiruvchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta uchun haq.

**Sug‘urta polisi** - Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta shartnomasi shartlari asosida Sug‘urtalovchining majburiyati boshlanganligini tasdiqlash uchun beriladigan hujjat.

**Sug‘urtaning amal qilish hududi** - Avtotransport vositasi sug‘urtaviy himoya bilan ta‘minlangan yoki sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi) bo‘yicha Sug‘urtalovchining javobgarligi amal qiladigan hudud.

**Franshiza** - Sug‘urta qildiruvchining ko‘rgan zararini bir qismi bo‘lib, Sug‘urta hodisasi natijasida Sug‘urtalovchi zararining shu qismi uchun javobgarlik olib bormaydi va ushbu summa doirasida sug‘urta tovonni to‘lash bo‘yicha da‘volar ko‘rib chiqilmaydi.

**II. SUG‘URTA OBYEKTI**

Sug‘urta qildiruvchining O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid kelmaydigan sug‘urtalangan, foydalanishga yaroqli avtotransport vositasi, qo‘shimcha uskuna va ehtiyot qismlarining sug‘urta hodisasi ro‘y berishi oqibatida zararlanishi, nobud bo‘lishi va yo‘qotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy manfaati Sug‘urta obyektini hisoblanadi.

**III. SUG‘URTA HODISASI**

3.1. Mazkur shartnomaga ko‘ra quyidagi hodisalar (sug‘urta qaltisliklari) natijasida sug‘urtalangan avtotransport vositasining zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi Sug‘urta hodisasi hisoblanadi:

- avtotransport vositasini olib qochish;
- o‘g‘rilik;
- bosqinchilik;
- yong‘in;
- portlash;
- YTH (yo‘l transport hodisasi);
- jismlarning urilishi;
- **tabiiy ofatlar** (tezligi 20 m/s dan yuqori bo‘lgan kuchli shamol, juda kuchli shamol (dovul), juda kuchli jala, sel va sel oqimi, yashin urishi, zilzila, toshqin, ko‘chki, do‘l, juda kuchli qor yog‘ishi yoki kuchli sovuq);
- **uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.**

#### **IV. SUG‘URTA HODISASI HISOBLANDIGAN HOLATLAR**

##### **4.1. Quyidagilar sug‘urta hodisasi hisoblanmaydi:**

– Sug‘urta qildiruvchi, haydovchi yoki sug‘urtalangan avtotransport vositasida bo‘lgan boshqa shaxslarning atayin (qasddan) amalga oshirgan xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida sug‘urta hodisasini yuzaga kelishi, ammo qasddan qilingan harakatlar ular tomonidan zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida, shuningdek uchinchi shaxslar hayoti, salomatligi, qadr-qimmatini, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan hollar bundan mustasno.

– avtotransport vositasini mastlik holatida (alkogol, giyohvand moddalar iste‘mol qilgan va h.k.), sezgirlik va e‘tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta‘sirida boshqarish;

– tegishli toifadagi avtotransport vositasini boshqarish huquqini beruvchi haydovchilik guvohnomasi, ishonchnomasi bo‘lmagan shaxslarga avtotransport vositasini boshqarish uchun topshirish;

– avtotransport vositasidan foydalanishda uni ekspluatasiya qilish, yong‘in havfsizligi, yonuvchi va portlovchi modda hamda predmetlarni tashish va saqlash qoidalarining buzilishi;

– haydovchi avtotransport vositasini boshqarishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Yo‘l harakati qoidalari”da belgilangan svetoforming ta‘qiqlovchi ishoralari, temir yo‘l kesishmalari orqali harakatlanish qoidalari, to‘xtash va to‘xtab turish qoidalari rioya qilmasligi, avtotransport vositasini boshqarish chog‘ida telefondan belgilanmagan tartibda foydalanishi, yo‘lda harakat yo‘nalishiga qarshi harakatlanishi;

– avtotransport vositasini yo‘lning notekis va sifatsiz joylarida harakatlanishi yoki o‘tkir buyumlarni bosib o‘tishi natijasida avtotransport vositasining shinasi (balonlari)ning zararlanishi, agar buning natijasida avtotransport vositasini zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi kelib chiqqan bo‘lmasa;

– avtotransport vositasi, uning alohida ehtiyot qismlarining doimiy ta‘sir qiluvchi ekspluatasiya omillari (tabiiy eskirish, chirish, sirtining buzilishi, yorilish, zanglash va hokazolar) natijasida zararlanishi, shuningdek, sug‘urta hodisasi yoki ob-havo ta‘siri natijasida tashqi ko‘rinishining eskirishi va sifatining buzilishi.

##### **4.2. Quyidagi hollarda sug‘urta to‘voni to‘lanmaydi:**

– tashqi omillar ta‘siri bilan sodir etilmagan ichki nosozliklar uchun;

– avtotransport vositasini ishlab chiqargan korxonadan tomonidan ko‘zda tutilmagan alohida qo‘shimcha qism va jixozlarini zararlanishi, nobud bo‘lishi yoki yo‘qotilishi (agarda qo‘shimcha qism va jixozlar Sug‘urta shartnomasining I-lovasida ko‘rsatilmagan bo‘lsa);

– uchinchi shaxslarning noqonuniy harakati natijasida avtotransport vositasining zararlanishi, nobud bo‘lishi va yo‘qotilishi uchun (agarda sodir bo‘lgan hodisa haqida vakolatli tashkilotlar (DYHXX, IIV, YHX) ga xabar berilmagan hamda hodisa ular tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa);

– sug‘urta hodisasi sababi deb da‘vo qilinayotgan tabiiy ofatlar gidrometeorologiya markazidan olingan ma‘lumotlar bo‘yicha o‘z tasdig‘ini topmagan holatda;

– sodir bo‘lgan sug‘urta hodisasi sabablarini aniqlash imkoni bo‘lmagan taqdirda;

– sug‘urta qildiruvchining Sug‘urtalovchiga zararlangan avtotransport vositasini yoki uning qoldiqlarini ko‘rsatishdan bosh tortsa (avtotransport vositasini yo‘qotilgan hol bundan mutasno);

– avtotransport vositasini ishlab chiqargan korxonadan o‘rnatilgan ehtiyot qismlarning sifatsiz bo‘lganligi aniqlanganda;

- sugʻurta shartnomasi tuzilishidan avval avtotransport vositasining nosoz qismlari va kamchiliklari boʻlganligi aniqlangan taqdirda;
- yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan qoplangan boʻlsa;
- sugʻurta hodisasi natijasida yuzaga keladigan bilvosita xarajatlar (jarima, ijara sifatida foydalanilgan avtotransport vositasining ijara xaqi, taʼmirlash xarajatlari, mehmonxona uchun toʻlangan xarajatlar, safar xarajatlari, yoʻqotilgan foyda, maʼnaviy va moddiy zarar);
- Sugʻurta mukofotini sugʻurta shartnomasida bosqichma-bosqich toʻlanishi belgilangan boʻlsa, Sugʻurta qildiruvchi tomonidan sugʻurta mukofotlari belgilangan muddatlarda toʻlanmasa;
- sugʻurtalangan avtotransport vositasi davlat organlarining farmoyishi bilan olib qoʻyilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yoʻq qilib tashlanishi oqibatida koʻrilgan zarar.

#### **4.3. Umumiy istisnolar**

##### **Sugʻurtalovchi quyidagi hollarda sugʻurta tovonini toʻlamaslikka haqli:**

- Sugʻurta qildiruvchi yoki uning vakili sugʻurta tovonini olish uchun yozgan arizasida koʻrilgan zarar haqida yolgʻon maʼlumot berganligi hamda sodir etilgan hodisani tasdiqlovchi qalbaki hujjatlar taqdim etganligi aniqlansa;
- Sugʻurta qildiruvchi yoki uning vakili tomonidan koʻrilgan zarar miqdori va sababini aniqlash uchun zarur boʻlgan hujjatlar taqdim etilmasa;
- Sugʻurta xodisasi yuzaga kelishidan avval sugʻurta shartnomasini amal qilishi tugatilgan boʻlsa;
- Sugʻurtalovchi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan asoslar boʻyicha sugʻurta shartnomasini haqiqiy emas deb topish toʻgʻrisida yoxud sugʻurta qildiruvchi (naf oluvchi) sugʻurta hodisasi holatlarini tekshirib koʻrishga yoki yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashga toʻsqinlik qilgani tufayli sugʻurta shartnomasini bekor qilish toʻgʻrisida daʼvo qoʻzgʻatilgan boʻlsa;
- Sugʻurta hodisasi avtotransport vositasidan Sugʻurta shartnomasida koʻrsatilgan Sugʻurtaning amal qilish hududidan tashqarida foydalanilganda sodir boʻlsa;
- Avtotransport vositasidan oʻquv-mashq, musobaqa yoki sinov maqsadlarida foydalanish;
- Sugʻurta hodisasi haqida belgilangan muddatda xabar berilmasa (Oʻz.Res. FKning 951-moddasida belgilangan tartibda).

#### **4.4. Quyidagi siyosiy tavsifga ega boʻlgan hodisalar tufayli avtotransport vositasini zararlanishi, nobud boʻlishi yoki yoʻqotilishi qoplanmaydi:**

- urush va harbiy harakatlar (urush eʼlon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qatʼiy nazar), gʻalayon, inqilob, qoʻzgʻolon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanish.

## **V. SUGʻURTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TOʻLASH TARTIBI**

**5.1.** Sugʻurta tovonini olish toʻgʻrisida Sugʻurta qildiruvchining arizasi 3 kun muddat ichida yozma ravishda beriladi va quyidagilarni oʻz ichiga olgan boʻlishi kerak:

- Sugʻurta hodisasi sodir etilgan sana va uning tafsiloti;
- Zararlangan avtotransport vositasiga tegishli boʻlgan boshqa sugʻurta shartnomalarining mavjudligi;
- Sugʻurta qildiruvchi tomonidan koʻrilgan zararni qoplash boʻyicha uchinchi shaxslardan olingan kompensatsiya toʻlovlari haqida maʼlumot.

#### **5.2. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:**

##### **5.2.1. avtotransport vositasi yoʻqotilganda:**

- 1) Ushbu hodisa boʻyicha tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar, Yongʻin xavfsizligi va boshqalar) ning maʼlumotnomalari;
- 2) Sugʻurta polisi.

##### **5.2.2. avtotransport vositasi zararlangan yoki nobud boʻlganda:**

- 1) Ushbu hodisa boʻyicha tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar, Yongʻin xavfsizligi va boshqalar) ning maʼlumotnomalari;
- b) YTHda haydovchining mastlik holatida yoki giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki shaxsning aql-idrokiga taʼsir koʻrsatuvchi boshqa moddalar taʼsiri ostida boʻlgan yoki boʻlmaganligi toʻgʻrisidagi tibbiy bayonnoma;

- d) Tegishli litsenziyaga ega bo'lgan baholovchi tashkilotning baholash hisoboti;
- e) Sug'urta polisi nusxasi.

**5.3. Yuqoridagi har ikkala holda quyidagi xujjatlarning ham nusxalari ilova qilinishi shart:**

- Haydovchining pasporti;
- Haydovchilik guvohnomasi;
- Avtotransport vositasi ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma;
- Avtotransport vositasini boshqarish huquqi berilgan hujjat;

**Shuningdek, Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi fotosurat yoki videotasmalar.**

**5.4.** Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta qildiruvchi tomondan sug'urta obyektini zararlanishi bo'yicha xabar berilgandan so'ng, sug'urta shartnomasiga asosan darhol hodisa joyiga chiqilib, hodisa sabablari o'rganilib, dastlabki ma'lumotnoma tuziladi.

**5.5.** Sug'urtalovchi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar miqdori aniqlanadi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi tafsiloti to'g'risida tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar organlari, Yong'in xavfsizligi xizmati, Gidrometeorologiya xizmati va boshqalar) dan hodisa bilan bog'lik bo'lgan ma'lumotlarni so'rab olishga, shuningdek sodir etilgan hodisa tafsiloti va sabablarini xolis aniqlashtirishga haqli.

**5.6.** Tuzilgan ma'lumotnomalar Sug'urta hodisasi tan olinganligi yoki tan olinmaganligini bildirmaydi va ma'lumotnomalar asosida Sug'urta to'voni to'lanmaydi.

**5.7.** Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirishi va zarur holatlarda, boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

**5.8.** Avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar miqdorini va Sug'urta hodisasi ro'y berganligini isbotlash Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi zimmasida bo'ladi.

**5.9.** Sug'urta to'voni haqiqiy yetgan zarar miqdorida, lekin shartnomada belgilangan Sug'urta pulidan oshmagan holda belgilanadi.

**5.10.** Sug'urtalovchi taqdim etilgan xujjatlarni o'rganib chiqib, Sug'urta hodisasi ro'y berganligi yoki Sug'urta hodisasi ro'y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi. Qarorda Sug'urta to'voni miqdori belgilanadi.

**5.11.** Sug'urta to'voni quyidagi tartibda to'lab beriladi:

1) avtotransport vositasi to'liq yo'qotilgan (yoki o'g'irlangan) taqdirda – sug'urta shartnomasida belgilangan sug'urta puli hajmida;

2) avtotransport vositasi zararlangan taqdirda – avtotransport vositasiga yetkazilgan moddiy zarar miqdorida.

**5.12.** Avtotransport vositasini yaxshilashga va boshqa qilingan sarf harajatlar qoplab berilmaydi.

**5.13.** Sug'urta to'vonini to'lashning barcha hollarida Franshiza miqdori Sug'urta shartnomasining shartlariga ko'ra o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

**5.14.** Agar avtotransport vositasini sug'urtalash shartnomasida sug'urta puli sug'urta qiymatidan kam qilib belgilangan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganida sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) u ko'rgan zararni sug'urta pulining sug'urta qiymatiga bo'lgan nisbatiga mutanosib ravishda qoplanadi.

**5.15.** Agar sug'urtalangan avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar aybdor yoki uchinchi shaxslar tomonidan qoplangan bo'lsa, Sug'urtalovchi faqat sug'urta hodisasi bo'yicha aniqlangan sug'urta to'voni miqdori bilan aybdor yoki uchinchi shaxslar tomonidan qoplangan pul miqdori o'rtasidagi farqni to'lab beradi.

**5.16.** Sug'urta hodisasi ro'y berganda, Sug'urtalangan avtotransport vositasiga yetkazilgan zarar boshqa sug'urtalovchi tomonidan qoplangan bo'lsa, faqat zararni qoplanmay qolgan qismi to'lab beriladi.

**5.17.** Sug'urta to'voni Sug'urta shartnomasiga asosan Sug'urta qildiruvchining yoki Naf oluvchining hisob raqamiga (jismoniy shaxs bo'lsa shaxsiy hisob raqamiga) pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

**5.18.** Qo'shimcha jixoz va uskunarlar bo'yicha yetkazilgan zarar miqdori Sug'urta shartnomasida belgilangan vaqtdagi ularning haqiqiy bahosi asosida aniqlanadi.

**5.19.** Agar sodir bo'lgan sug'urta hodisasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan yoki sud jarayoni boshlangan bo'lsa, sug'urta to'voni to'lash bo'yicha qaror surishtiruv va tergov yoki sud ishlari hal bo'lgunga qadar kechiktirib turilishi mumkin.

6.1. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha ma'lumotlar va hujjatlarni to'liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar o'rganib chiqiladi va 15 kun ichida sug'urta hodisasi yuz berganligi yoki yo'qligi to'g'risida dalolatnomani tuziladi. Sug'urta hodisasi yuz berganligi aniq bo'lsa, komissiya sug'urta tovonni miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

6.2. Sug'urta tovonni sug'urta hodisasini tan olish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida Naf oluvchining roziligi bilan Sug'urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga to'lab beriladi. Sug'urta hodisasi natijasida Sug'urta qildiruvchi (jismoniy shaxs bo'lsa) vafot etgan taqdirda, Sug'urta tovonni uning vorisiga shartnomada belgilangan tartibda to'lab beriladi.

## **VII. SUG'URTA SHARTNOMASINING TUGATILISHI**

**VII.1.** Sug'urta shartnomasi taraflarning yozma xabarnomasiga asosan har qanday holatda o'zgartirilishi yoki to'xtatilishi mumkin. Bunday holatda, bir taraf ikkinchi tarafni Sug'urta shartnomasi bekor bo'lishidan 30 (o'ttiz) kun oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

**VII.2.** Sug'urta shartnomasining amal qilishi quyidagi hollarda tugaydi:

- 1) Sug'urta muddati tugaganda;
- b) Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda;
- d) Sug'urta shartnomasi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan taqdirda;
- e) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

**VII.3.** Sug'urta shartnomasi Sug'urta qildiruvchining tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilish taklifi bilan chiqilgan taqdirda Sug'urta qildiruvchining yozma murojaatiga ko'ra, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga shartnomaning o'tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug'urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug'urtalovchining sug'urta ishini yuritish bilan bog'liq bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug'urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

**VII.4.** Agar sug'urta shartnomasidagi sug'urta pulini oshirib yuborish sug'urta qildiruvchi tomonidan aldashing oqibati bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni va o'ziga yetkazilgan zararni sug'urta qildiruvchidan qoplanishini talab qilishga haqli.

**VII.5.** Sug'urta shartnomasi tuzilgandan so'ng sug'urta qildiruvchini o'ziga ma'lum bo'lib, sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (sug'urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlar haqida sug'urtalovchiga qasddan yolg'on ma'lumot bergan bo'lsa, sug'urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqli. Bu holda Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

**VII.6.** Sug'urta xavfi ortishiga sabab bo'ladigan holatlar to'g'risida xabardor qilingan sug'urtalovchi sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki xavf ortishiga mutanosib ravishda qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishga haqli.

Agar sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) sug'urta shartnomasining shartlari o'zgartirilishiga yoki sug'urta mukofotiga qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirsa, sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksning 28-bobida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq sug'urta shartnomasini bekor qilishni talab etishga haqli.

## **VIII. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

**VIII.1. Sug'urta qildiruvchining huquqi:**

- Sug'urtalovchidan sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta masalasida maslaxatlar olish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchidan mazkur shartnomada belgilangan tartibda sug'urta tovonini olish;
- Sug'urta polisini olish;
- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda holis ekspertizani o'tkazishni talab qilish;
- Sug'urta shartnomasiga Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda qo'shimcha va o'zgarishlar qilish (qo'shimcha kelishuv imzolagan holda);

**VIII.2. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:**

- Sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda Sug'urta mukofotini to'lash;
- Sug'urtalovchiga Sug'urta shartnomasini amal qilish davrida sug'urta obyektlari haqida to'liq va ishonchli xabar berish. Bu quyidagi holatlar yuz berganida darhol yozma xabar berishni o'z ichiga oladi:

- a) avtotransport vositasiga bo'lgan mulk huquqi boshqa shaxsga o'tganida;
- b) DYHXX organlari tomonidan avtotransport vositasi ro'yxatdan olib tashlanganda yoki qayta ro'yxatdan o'tkazilganda;
- d) Sug'urtalangan avtotransport vositasining ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar, avtotransport vositasining kaliti, signalizatsiya pulti, ro'yxatdan o'tkazilganlik davlat raqam belgilari yo'qolganda yoki o'g'irlanganda.
  - Boshqa sug'urtalovchilar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari haqida Sug'urtalovchiga xabar berish (agar sug'urta shartnomasi tuzilgan bo'lsa);
  - Sug'urta shartnomasining amal qilish davrida sug'urta qildiruvchi shartnoma tuzilayotganda sug'urtalovchiga ma'lum bo'lgan holatlardan boshqa muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, sug'urtalovchiga darhol (5 kun ichida) xabar qilishi shart. Bu o'zgarishlar tarkibiga quyidagilar kiradi:
    - 1) Qo'shimcha ravishda gaz uskunasi o'rnatilganda.
  - Sug'urtalangan avtotransport vositasi o'g'irlab ketilgan vaziyatda:
    - 1) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sodir bo'lgan hodisa, uning sabab va tafsilotlari haqida 3 ish kuni mobaynida yozma ravishda ma'lumot berishi kerak;
    - 2) Sug'urta qildiruvchi darhol huquqni muhofaza qiluvchi organlarni sodir bo'lgan hodisa haqida xabardor qilishi shart;
    - 3) Surishtiruv va tergov organlari tomonidan sodir etilgan hodisa bo'yicha jinoyat ishi boshlanganligi yo to'xtatib qo'yilganligi yohud sudga oshirilganligi to'g'risida qarorining nusxasini Sug'urtalovchiga topshirishi kerak.
      - YTH (yo'l-transport hodisasi), portlash, yong'in, jismlarning urilishi, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, tabiiy ofatlar natijasida avtotransport vositasi zararlanga yoki nobud bo'lsa, sug'urta qildiruvchi tomonidan quyidagi xatti-harakatlar bajarilishi shart:
        - a) Sug'urtalovchini hodisa haqida yuqorida belgilangan tartibda xabardor qilish;
        - b) DYHXX organlariga YTH sodir etilgani haqida xabar berish va hodisa sodir bo'lgan joyda ma'muriy bayonnoma tuzish;
        - d) Sug'urtalovchining vakiliga zararlangan avtotransport vositasini ko'zdan kechirishi uchun ko'rsatish va zaruriyat tug'ilganda avtotransport vositasining barcha zararlangan qismlarini fotosurat yoki video tasмага yozib olish va ta'mirlash ishlari boshlanishidan avval galdagi qilinadigan ishlar bo'yicha Sug'urtalovchi bilan kelishib harakat qilish;
        - e) Avtotransport vositasini ta'mirlash (va uning joyini belgilash) va boshqa (sotish, metallomga berish va hokazolarni) ishlarini Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda amalga oshirish;
        - f) Belgilangan tartibdagi litsenziyaga ega bo'lgan baxolash tashkilotining zarar miqdorini aniqlanganligi haqidagi xulosasini olish;
        - g) Tegishli organlar (DYHXX, Ichki ishlar, Yong'in xavfsizligi va boshqalar) tomonidan sodir etilgan hodisa, uning sabablari va tafsilotlari to'g'risida tuzilgan bayonnoma (Surishtiruv va tergov organlarining qarori yoki xulosasi) nusxasini taqdim etish; Surishtiruv va tergov organlari tomonidan sodir etilgan hodisa bo'yicha jinoyat ishi boshlanganligi yoki to'xtatib qo'yilganligi yohud sudga oshirilganligi to'g'risida qarorining nusxasini Sug'urtalovchiga topshirish kerak (agar jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lsa).
  - Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida sug'urtalangan avtotransport vositasi holatini, shuningdek avtotransport vositasi haqida Sug'urta qildiruvchi tomonidan xabar berilgan ma'lumotlarni to'g'riligini tekshirish uchun Sug'urtalovchiga imkoniyat berish;
  - Sug'urtalangan avtotransport vositasini zararlanishi, nobud bo'lishi yoki yo'qotilishini oldini olish uchun imkoniyat darajasida barcha choralarni ko'rish;
  - Sug'urta shartnomasini tuzishda avtotransport vositasiga tegishli talab qilinadigan barcha hujjatlar nusxalarini taqdim etish.

### **VIII.3. Sug'urtalovchining huquqi:**

- Avtotransport vositasi va uning holatini sug'urta shartnomasi tuzishdan avval tekshirish, fotosura'tlarini olish;
- Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchidan sug'urta shartnomasida belgilangan majburiyatlarining bajarilishini talab qilish;
- Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish;

– Sugʻurtalangan avtotransport vositasining zararlanishi, nobud boʻlishi yoki yoʻqotilishida aybdor shaxslar aniqlangan hollarda toʻlangan Sugʻurta tovonini ulardan undirib olish boʻyicha daʼvo qilish;

– Sugʻurta tovonini miqdorini aniqlash uchun Sugʻurta qildiruvchidan mutasaddi tashkilotlarning dalolatnomalarini, ekspertlar hulosalarini taqdim etishni talab qilish;

– Sugʻurta hodisasi natijasida yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash maqsadida oʻz vakilini yuborish;

– Sugʻurta tovonini toʻlashni ushbu Shartnomaga hamda amaldagi Qonunchilikka asosan belgilangan tartibda rad etish;

– Sugʻurta qildiruvchi sugʻurta shartnomasi tuzilishidan avval Sugʻurtalovchiga yolgʻon maʼlumotlar berganligi aniqlansa, sugʻurta shartnomasining bekor qilish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish;

– Sugʻurta qildiruvchidan baholash tashkilotlarining hisobotlariga asosan yaroqsiz deb topilgan va avtotransport vositasini taʼmirlash jarayonida yangilariga almashtirilgan ehtiyot qismlarini talab qilib olish.

#### **VIII.4.**

#### **Sugʻurtalovchining majburiyatlari:**

– Sugʻurta qildiruvchini sugʻurta shartlari bilan tanishtirish;

– Roʻy bergan hodisasi sugʻurta hodisasi deb tan olingan taqdirda, sugʻurta shartnomasida oʻrnatilgan tartib va muddatlarda daʼvoni koʻrib chiqish hamda sugʻurta tovonini toʻlab berish;

– Sugʻurta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi sugʻurtaga oid masalalarda maslaxatlar berish;

– Sugʻurta polisini va/yoki uning dublikatini shartnomada belgilangan muddatlarda Sugʻurta qildiruvchi yoki Naf oluvchiga yozib berish;

– Sugʻurtalangan avtotransport vositasi, Sugʻurta qildiruvchi yoki Naf oluvchi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni sir saqlash.